

**“KIRITMALAR” MAVZUSINI ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O’QITISH**

Karabekova Sojida Egamkulovna

Jizzax viloyati Zomin tumani 54-maktab

ona tili va adabiyot fani oliy toifali o’qituvchisi

e-mail: sojidaqorabekova198@gmail.com tel: +998910262386

Annotatsiya: maqolada o’quvchilarga kiritmalar va ularning izohi, ma’nolari, qo’llanilishi, tuzilishini o’rgatishda zamonaviy texnologiyalar, metodlar asosida o’rgatish xususida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: kiritma, innavatsion, metod, qo’llanma, “Milliy dastur”, mulohaza, fikrlash, mustaqil fikr, bilim, ko’nikma, amaliyot, uzviylik, uzluksizlik, "estafeta", "suxandon", "o’rningni top", "kim mulohazali?"

Zamonaviy texnologiyalar asrida yashar ekanmiz, hayotda har sohada ildam bo’lishimiz talab etiladi. Ana shu talab asosida mamlakatimizda o’ziga xos ta’lim tizimi yaratildi: “Ta’lim to’g’risida” qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilindi. Ularda ta’limning boshqa sohalari qatori ona tili, uni o’qitishga ham alohida urg’u berilgan.

Ona tili o’quvchini mustaqil fikrlashga, mulohazalarini og’zaki va yozma ravishda to’liq bayon qilishga o’rgatadi. O’quvchining savodxonlik darajasi, uning ijtimoiy hayotda tutgan o’rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosida quriladi. Bundan tashqari, o’quvchining o’z ona tilisini bilishi unda milliylik, vatanparvarlik tuyg’ulari shakllanishiga, bu esa o’z navbatida vatanga, tilga va xalqqa bo’lgan muhabbatning shakllanishiga olib keladi.

Tilning o’ziga xos jozibasini o’quvchilarga yetkazish, his qildirish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda ona tili ta’limida an’anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Keyingi yillarda o’qitishning zamonaviy ta’lim metodlari paydo bo’ldi. Bu esa o’quvchining dunyoqarashi va mustaqil fikri rivojiga yordam beradi. Olgan saboqlarini hayotda ham qo’llay olishi bilan ahamiyatlidir.

Ma’lumki, ona tili darslarida kiritmalar, kirish so’zlar mavzulari birmuncha murakkabligi bilan farq qiladi. Bunday mavzular odatda o’quvchi yosh xususiyatini inobatga olgan holda o’tiladi. Kiritmalarni kundalik hayotda deyarli har kun ishlatsakda, unga ko’p ham ahamiyat beravermaymiz. Oddiy ko’ringan shu birgina mavzuni o’quvchilarga yetkazish biz o’qituvchilardan mohirlik talab qiladi. Uning mohiyatini anglatishimiz oldimizdagi eng birinchi masalaga aylanadi.

"Kiritmalar, kirish so’zlar" mavzusini o’quvchilarga oson va samarali yetkazib berish uchun interfaol usullardan foydalanish o’quvchida ham, o’qituvchida ham bir qator qulayliklar yaratadi. Darslarda olingan bilimlarga asoslanib zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi. Ayniqsa, "bilib oling" rukni "uzviylik va uzluksizlik" metodi orqali

o'zlashtirilsa, o'quvchilarning mazkur ma'lumotni mustaqil o'qishi, so'ngra uni izohlashga urinishida samara beradi. Qoidalar o'qituvchi tomonidan emas, balki o'quvchilar o'zlari o'qib o'qituvchi nazoratida izohlaydilar:

1- o'quvchi: Kiritmalar so'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikriga munosabati (ishonchi, gumoni, tasdig'i, inkori va h.)ni ifodalaydi.

2- o'quvchi: Fikrning birovga nisbatlanishi (mansubligi, aloqadorligi) ni ifodalaydi.

3- o'quvchi: O'z fikri tarkibiy qismlarining ahamiyatligi darajasi (birinchidan, ikkinchidan) kabi rang-barang ma'nolarni ifodalaydi.

4- o'quvchi: Kiritmalar so'zlovchi bayon etayotgan fikriga qo'shimcha axboroti yoki izohi kabi ma'nolarni ifodalaydi.

5- o'quvchi: Kiritmalar gapning xususan matnning umumiy mazmuniga daxldor bo'lsa-da, gapdagi biror bo'lak bilan tobelik aloqasiga kirmaydi.

6- o'qituvchi: Kiritmalar gapda boshqa bo'laklardan vergul, tire, ba'zan qavs bilan, talaffuzda esa kichik to'xtamlar bilan ajratiladi.

7- o'quvchi: Kiritmalar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab turlarga bo'linadi. Sodda kiritmalar so'zlar va so'z- gaplar bilan, murakkab kiritmalar esa so'z birikmasi, kengaygan birikmalar bilan ifodalanadi.

Kiritmalar ifodalagan ma'nolarni " kim mulohazali? " metodini qo'llash asosida o'yin tarzida darsni davom ettirish ko'zlagan maqsad tomon olib boradi. Raqobatga asoslangan bu metod o'quvchidan tezkorlik, topqirlik, aniqlik kabi sifatlarni talab etadi. "So'zlar savatchasi"da kiritmalarga oid so'zlar bo'lib, o'quvchilar ular ishtirokida gap tuzish orqali ifodalagan ma'nosini anglab, alohida guruhlariga ajratishadi.

Ishonch ma'nosi- albatta, shubhasiz, shaksiz, bo'lmasachi, turgan gap, tabiiy...

Gumon- taxmin ma'nosi- ehtimol, shekilli, balki, bo'lsa kerak...

Mamnunlik-quvonch ma'nosi - xayriyat, inshaalloh, aykanay, sadag'ang ketay, o'rgilay, qurbon bo'lay...

Istak ma'nosi - koshki, qani endi, qanday yaxshi bo'lardi...

Taajjub ma'nosi - tavba, buni qarang, astag'firulloh...

Ta'kid ma'nosi - axir, ayniqsa, haqiqatan, qurg'ur, baraka topgur...

Achinish ma'nosi- afsus, bechira, attang, baxtga qarshi, esiz...

Xuddi shunday kiritmalarni so'z, birikma yoki gap bilan ifodalanishiga ko'ra ajratishda "estafeta" metodini qo'llab, maqsadga yetish mumkin. Bunda noan'anaviy usullardan foydalangan holda dars o'tiladi. O'quvchilar guruhlariga bo'linib amalga oshirdi.

Kiritmalarni nutqda qo'llaganda to'xtam bo'lishi, yozuvda tinish belgilari bilan ajratilishini o'quvchiga tushuntirish lozim. Bunda "suxandon" metodi qo'l keladi. Qavs, vergul, tire belgilari qaysi o'rinda qo'yilishini tushuntirgach, uni amaliyotda qo'llash uchun, tayyor gaplar yozilgan tarqatmalar beriladi. Avval o'quvchi gapni o'qib, so'ngra unga tinish belgisini qo'yadi. Tinish belgisi qo'yilgach, ifodali o'qib beradi. Abatta, misol tariqasida berilgan gaplar, his-hayajonga boy bo'lishi kerak: " Baraka topgur sen ham o'z obro'ying uchun kurashmaysanmi?!" , "Aylanay bizning zaminlar xo'p ajoyib

zamonlar edi" kabi...Gaplarni holatga tushib, mimikalar bilan ijro etgan kishi suxandon etib saylanadi.

Kiritmalarning tuzilishiga ko'ra turlarini o'rganishda bir necha metodlar qo'l keladi. "O'rningni top" metodi mavzuni o'quvchi uchun yetkazib berish borasida qulay usullardan biri. Dars yakunida barcha o'rgangan metodlar o'quvchilar bilan qayta takrorlaniladi va ikki guruh: sodda va murakkab kiritmalarga ajratib boradi. Bu metodlar o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil mulohaza yuritishda, gaplaridagi so'z o'rinlariga ahamiyatli bo'lishida juda muhim o'rin tutadi.

Xulosa: Yurt kelajagi yoshlar qo'lida ekan, ularni ona tilimizni mukammal o'rganishga, og'zaki va yozma savodxonligining yuksak bo'lishiga chorlashimiz zarur. Zero, davr o'quvchidan ham, o'qituvchidan ham izlanishni, yangicha qarashlarga ega bo'lishni, fikrni ayta olish va uni yetkazib berishni talab qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B. Mengliyev. "O'zbek tili grammatikasi"
2. 10-sinf ona tili metodikasi. Toshkent -2022
3. Ona tili va adabiyot jurnali.

